

AGROSANOAT KOMPLEKSINING SHAKLLANISHI VA TARKIBIY TUZILMASINING IQTISODIY TAHLILI

Quvatova Zaxro

Ilmiy rahbar: Bojxona instituti "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sa'dullayev Behro'z Bahodir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining

Bojxona instituti, Bojxona ishi yo'nalishi

1-kurs, 525-guruh kursanti

Nosirjonov Abdulaziz Sultonali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti,

Bojxona ishi yo'nalishi 1-kurs, 525-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18280612>

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrosanoat kompleksining shakllanishi, uning tarkibiy tuzilmasi va iqtisodiyotdagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqot davomida agrosanoat majmuasining asosiy tarmoqlari, ularning o'zaro integratsiyasi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining rivojlanish tendensiyalari, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati va davlat agrar siyosatining asosiy yo'nalishlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Maqolada yer resurslaridan samarali foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va bozor munosabatlari sharoitida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: agrosanoat majmui, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy tahlil, yer resurslari, infratuzilma, bozor munosabatlari, agrar siyosat, yalpi ichki mahsulot.

Abstract. This article analyzes the formation of the agro-industrial complex, its structural composition, and its role in the national economy. The study examines the main sectors of the agro-industrial complex, their integration, and the processes of agricultural production, processing, storage, and delivery to consumers. In addition, the development trends of Uzbekistan's agro-industrial complex, its contribution to gross domestic product, employment, and the key directions of state agrarian policy are analyzed based on statistical data. Special attention is paid to the efficient use of land resources, infrastructure development, and ensuring sustainable growth of the agro-industrial complex under market economy conditions.

Keywords: agro-industrial complex, agriculture, economic analysis, land resources, infrastructure, market relations, agrarian policy, gross domestic product.

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы формирования агропромышленного комплекса, его структурное устройство и роль в экономике страны. В ходе исследования проанализированы основные отрасли агропромышленного комплекса, их взаимосвязь, а также процессы производства, переработки и доведения сельскохозяйственной продукции до потребителей. На основе статистических данных изучены тенденции развития агропромышленного комплекса Республики Узбекистан, его вклад в валовой внутренний продукт, занятость населения и основные направления государственной аграрной политики. Особое внимание уделено вопросам рационального использования земельных ресурсов, развитию инфраструктуры и обеспечению устойчивого развития агропромышленного комплекса в условиях рыночной экономики.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, сельское хозяйство, экономический анализ, земельные ресурсы, инфраструктура, рыночные отношения, аграрная политика, валовой внутренний продукт.

Agrosanoat majmui (ACM) — xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligi xom ashyosidan aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan tarmoqlar, korxonalar, faoliyat turlari majmui. Agrosanoat majmui murakkab va ko'p tarmoqlidir. Uning ishlab chiqarish tuzilmasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat majmui 3 sohani o'z ichiga oladi: 1) qishloq xo'jaligi (aholining tomorqa xo'jaligi ham kiradi) va o'rmon xo'jaligi; 2) qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari — traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, meliorativ va suv xo'jaligi ob'ektlari qurilishi tarmoqlari, asosiy fondlar ta'miri bo'yicha korxonalar, mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalari, biologik faol preparatlar ishlab chiqarish, ozuqa va mikrobiol. sanoati, turli idishlar (tara) tayyorlash va boshqalar; 3) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlar (tayyorlov, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish va boshqalar). Har bir tarmoq tarkibida ishlab chiqarish rivojining umumiy sharoitini ta'minlaydigan tarmoq infratuzilmalari muhim ahamiyatga ega (yo'l-transport xo'jaligi, moddiy texnika ta'minoti, elektr, gaz, suv ta'minoti, aloqa, omborxona elevator xo'jaligi, ulgurji va taqsimot bazalari va boshqalar). Shuningdek, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari, mutaxassislar va rahbar xodimlar malakasini oshirish fakultetlari, ixtisoslashgan texnikum va ishlab chiqarish texnika bilim yurtlari, tarmoq ilmiy tadqiqot instituti va laboratoriyalari, IIB, loyiha va institutlari hamda tashkilotlari, konstruktorlik byurolari, tajriba va davlat sinov stansiyalari tizimi Agrosanoat majmuini shakllantiradigan tarmoqlar qatorida turadi. O'zbekiston Agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi (un-yorma, yog'-moy (paxta moyidan tashqari), go'sht, sut, meva-konserva, vinochilik sanoati) va ikkilamchi (non, makaron, konditeriya, paxta moyi, go'sht, sut konservasi va mahsulotlari, oziq-ovqat konsentratlari) qayta ishlaydigan tarmoqlar va sohalardan iborat oziq-ovqat sanoati, texnika ekinlarini birlamchi (paxta, lub ekinlari, tamaki) va ikkilamchi (ip gazlama, to'qimachilik sanoati, lub tolalari, tamaki-maxorka mahsulotlari) qayta ishlaydigan tarmoq va sohalarni o'z ichiga olgan yengil sanoat muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat majmui hududiy xususiyatlar va ishlab chiqarayotgan eng muhim pirovard mahsulotiga qarab tizimlarga bo'linadi. Hududiy xususiyatiga ko'ra mamlakat va viloyat, tuman Agrosanoat majmui mavjud. Ishlab chiqarayotgan pirovard mahsulot bo'yicha don, paxta, meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa majmuaga bo'linadi. O'zbekiston tarixan rivojlangan paxtachilik, suv xo'jaligi, mashinasozlik zavodlari, o'g'it va pestitsidlar ishlab chiqaradigan zavodlar, paxta tozalash korxonalari, yog'-ekstraksiya zavodlari, to'qimachilik sanoati, ixtisoslashgan ilmiy muassasalarga ega. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ASM hissasiga yalpi mahsulotning 50% dan ortiqrog'i, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 40% dan ortig'i, xalq xo'jaligida band aholining 45% ga yaqini to'g'ri keladi. O'z navbatida Respublika ASMda paxtachilik agrosanoat majmui (PASM) eng yuqori salmoqqa ega. Respublikada chorvachilik sanoat majmui Agrosanoat majmuidan keyingi o'rinda turadi.

Agrosanoat majmuasi bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlantirishning asosini tashkil etadi.

Agrosanoat majmuasi o'z ichiga nafaqat qishloq xo'jaligini rivojlantirish, unga zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi texnika, texnologichlar qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarish va ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tashish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga olgan majmua tariqasida bo'z qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti talablari asosida rivojlanish zarur. Agrosanoat majmuasini rivojlanishida ishlab chiqarish jarayonini infratuzilmasini, ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega.

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini esa zarur bo'lgan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan xom ashyolar bilan ta'minlab turadi. Dastlabki berilgan statistika ma'lumotlariga ko'ra 2018 yilda yalpi ichki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 407514,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 5,1 foizga ko'pdir. Yalpi ichki mahsulotning o'sib borishi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga sof soliqlarning YalM tarkibidagi ulushi 11,2 foizni tashkil etib o'tgan yildagiga nisbatan 5,5 foizga ko'paydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi mahsulotlarni 2018 yil yanvar va dekabr oylari ichida ishlab chiqarishning umumiy qiymati 199537,4 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yildagiga nisbatan o'sish 0,3 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligining dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik sohalarida ishlab chiqarish 197703,3 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi bo'yicha 4757,5 mlrd. so'mni, baliq xo'jaliklari bo'yicha 1076,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida "Qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarini joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim va zifamizdir" degan edilar. Buning uchun qishloq xo'jaligida mavjud yer zahiralarini unumli foydalanish, suvni tejay digan sug'orish texnologiyalaridan foydalanishini mukamal egallash, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya uslublaridan foydalanish ishlariga e'tibor berishni talab etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni samarali rivojlanishi birinchidan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun asosiy uch ishlab chiqarish vositalari zarur bo'lishi bilan birga yer asosiy vosita bo'lib undan foydalanishi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog'liq. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida qishloq joylarida istiqomat qiluvchi mehnat resurslaridan foydalanish mumkin bo'lgan yerlardan samarali foydalanishni tashkil etish uchun yil mavsumini e'tiborga olgan xolda ishlab chiqarishni tashkil etish va yiliga kamida ikki marotaba xosil olish, ularning xosildorligini oshirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmini o'sib borishini ta'minlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida iqtisodiy faoliyatda band bo'lganlar soni 2018 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra 29,6 foizni tashkil etgan. Vaholanki qishloqda shu davrdan 6882,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa ularida ishlab chiqarishda iqtisodiy bo'lganlar 2037,3 ming kishini iqtisodiy faol band bo'lmaganlar 4309,0 ming kishini tashkil etgan. Demak qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish asosida iqtisodiy faol bo'lmaganlarni ham ish joylari bilan ta'minlash zarur. Qishloq, o'rmon, baliqchilik ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishni erkin raqobat asosida va qishloq xo'jaligi sub'ektlari o'rtasida sanoat korxonalari bilan xo'jalik birlashtirilgan ob'ektivlik asosida tashkil etishga bog'liq.

Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 303 702,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi 6,8 % ni tashkil etdi va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,6 % ni tashkil etdi va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi 14,2 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,0 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 8,7 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,6 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 14,6 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 6,4 % ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 4,0 f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,9 % ga o'sdi va uning YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p.ni tashkil etdi.

Bozor munosabatlari iqtisodiyotining hamma jabha larini jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonning agrar sohasi ishlab chiqarish miqdori, aholining bandligi, eksport quvvati bo'yicha iqtisodiyot ning yirik sohasi hisoblanadi. Aholining farovonligi va iqtisodiyot boshqa sohalarining rivojlanishi agrar sohaning holati, uning rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun, agrar siyosat davlatimiz iqtisodiy siyosatining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi davlat siyosatida qishloq xo'jali gini industirlashtirning bir maromda rivojlanishiga va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratil gan. Qishloq xo'jaligini isloh etish muammosini hal etmay turib butun iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom et tirish mumkin emas. Agrar islohotlarning asosiy vazifasi – O'zbekistonning yuksak darajada rivojlanishiga erishish yo'lidagi muhim bo'g'ini sifatida agrar-sektor majmuasining bir maromda taraqqiy etishini ta'minlash hisoblanadi. Mazkur tizimda agrar munosabatlar alohida o'rin tu tadi. Yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Bu munosabatlarning ob'ekti yer, sub'ekti esa yer egalariidir.

Yer cheklangan, uni ishlab chiqarib bo'lmaydi, am mo foydalaniladigan yerlarga qo'shimcha investitsiya mab lag'lari sarflab olinayotgan mahsulotning hajmini, uning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirish mumkin. Shuning uchun yerga bo'lgan talab ham taklif ham ko'paya di, lekin yer tabiat mevasi bo'lganidan uni mehnat bilan ko'paytirib bo'lmaydi. Yer hammabop resurs. Unda deh qonchilik qilish, undirma sanoat yurgazish, qurilish qilish mumkin. Qishloq xo'jaligida ta'sir ishlab chiqarishning o'zi ga hos hususiyatlari yerga bo'lgan egalik xususiyatiga ega. Ikki xil monopoliya bo'ladi. Birinchidan, yer qadr- qiymati baland resurs sifatida mulk monopoliyasida tura di, ya'ni egasi yo'q yer bo'lmaydi. Yer cheklangan miqdorda bo'lganidan uni mulk sifatida ko'paytirib bo'lmaydi. Bun 358 day hodisa yerga mablag' sarflashni egasiga bog'liq qilib qo'yadi. Yer egasining mulkdor sifatida manfaati bor, ya'ni u o'z yeridan naf ko'rishi kerak. Shu sababli yer ishlatish uchun tekinga berilmaydi. Yer egasiga undan foydala - nish haqini to'lash kerak. Ikkinchidan, yer xo'jalik yuritish monopoliya ob'ekta sifatida egallab olinadi, ya'ni yerda turli xo'jaliklar tashkil topadi, yaroqli yer bo'sh turmaydi. Yer resurs sifatida egalari qo'lida bo'lar ekan, ular boshqa resurslar singari uy xo'jaliklari tarkibiga kiradi. Binobarin, uy xo'jaliklari o'rtasida munosabat yer xususida bo'ladi. Yer mulk bo'lganidan mulkdorning roziligisiz uni ishla- tib bo'lmaydi. Undan

foydalanish uchun uning egasiga haq to'lash kerak. Yer o'z egasining mulki bo'lib qolgani holda vaqtincha boshqa mulk sohibi, xususan tadbirkor tomo nidan ishlatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar da qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, yerga bo'lgan munosabat bayon etilgan. Yer xususiy mulk sifatida sotilmaydi, balki u uzoq muddatga ija raga beriladi. Yerni ijaraga topshirilishi, unga bo'lgan egalik hissiyotini kuchaytiradi va qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantiruvchi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Agrosanoat majmuasi" maqolasi
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma, 2018-yil
4. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent, 353-359
5. Agrar iqtisodiyot va agrosanoat majmuasi. O'quv qo'llanma
6. <https://uz.wikipedia.org>